

# EL SOG' LIGI – YURT BOYLIGI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6110-son Farmoni va "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4891 sonli Qarori ijrosi bo'yicha Andijon davlat tibbiyot institutining 12 turdagi mutaxassislar (onkolog, akusher-ginekolog, pediatr, neyroxirurg, nevropatolog, otorinolaringolog, kardiolog, terapevt, dermatovenerolog, travmatolog, urolog, endokrinolog)dan iborat professor-o'qituvchilari tomonidan Qo'rg'ontepa tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik o'tkazildi. Ushbu jarayonda tumanning 214 nafar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik o'tkazilishi lozim bo'lgan aholisiga xizmat ko'rsatilib kerakli tavsiyalar berildi.







Shuningdek, Andijon davlat tibbiyot institutiga amaliy uslubiy yordam uchun biriktirilgan Andijon shahrining 7-Oilaviy poliklinikasiga qarashli Sarvontepa MFYda institutning 14 nafar professor-o'qituvchilari 156 nafar va joyida ko'rish lozim bo'lgan 15 ta xonadondagi 64 nafar mahalla fuqarolarini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazib kerakli tavsiya va yordamlar ko'rsatishdi.





Ushbu tadbirlar davomida aholi o'rtasida shaxsiy gigiena, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sog'lom ovqatlanish tamoyillari, jismoniy faollik, zararli odatlarga berilmaslik bo'yicha targ'ibotlar o'tkazildi.

**Davolash (amaliyot) bo'limi**



---

# Andijon davlat tibbiyot instituti o'qituvchilari tumanida

# professor-Xo'jabod umumta'lim maktablarida

Andijon davlat tibbiyot instituti biologik fizika, informatika, tibbiy texnologiyalar kafedrasining professor-o'qituvchilaridan – kafedra mudiri, dotsent Sh.A.G'ulamov, assistent O.M.Atabayev va laboratoriya mudiri B.Mo'minovlar Xo'jabod tumanidagi 26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabiga tashrif buyurdilar. Tashrif davomida kafedra professor-o'qituvchilari maktab jamoasi bilan tanishdilar, samimiy muloqat o'tkazdilar.



Mazkur maktabda ona tili va matematika fanlari 10-sinflarda

chuqurlashtirilgan shaklda o'tiladi. Maktabda elektron jurnal tadbiq qilingan bo'lib, baxolar kundalik.com tizimiga kiritiladi.



Kafedra professor-o'qituvchilari maktab pedagoglari bilan hamkorlikda kelajakdagi hamkorlik ishlari strategiyasi ishlab chiqildi va uchrashuv oxirida yangi adabiyotlar takdimotini o'tkazdilar.



**Sh.A.G'ulamov**

**ADTI biologik fizika, informatika, tibbiy texnologiyalar  
kafedrasining mudiri, dotsent**